

# REKTOR QUTLOVI

## TIL BILGAN EL BILADI

**Ibroxim G'ULOMOV,**  
ISFT rektori v.b.

Hurmatli mehmonlar! "International school of finance technology and science" instituti filologiya kafedrasini tomonidan "Tillarni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumaniga xush kelibsiz!

Keyingi yillarda mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatishni ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish va sohani rivojlantirish uchun tizimli ishlarni tashkil etish, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, buning uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish maqsadida boshqa sohalarda bo'lganidek, oliy ta'limgiz tizimida ham keng miqyosdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, dunyo bo'yicha samarali natija bergen o'qitish metodikalari, dastur va darsliklarni oliy ta'limgiz muassasalarida joriy etish yuzasidan boshqa oliy o'quv yurtlari qatorida institutimizda ham xorijiy davlatlar ta'limgiz muassasalari bilan hamkorlikning yo'lga qo'yilishi buning yorqin misolidir. Shu yilning fevral oyida ustozlarimiz Turkiya kabi davlatlarning ta'limgiz tizimi, ulardagi ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'rnatib qaytgan bo'ssalar, ayni kunlarda bir guruh ustozlar Belarus oliy ta'limgiz tizimidagi metodika, dastur va darsliklar bilan tanishmoqdalar. Bu ustozlarning katta qismi til mutaxassislari ekanligi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi kun yoshlari nafaqat bir, balki kamida 2-3 xorijiy tilni bilishlarini davr taqozo etmoqda.

Bundan bir asrdan ziyod vaqt ilgari ma'rifatparvar shoir Avaz O'tar:

***Har tilni biluv emdi bani odama jondur,***

***Til vositai robitayi olamiyondur,***

deb yozgan bo'lsa, Mahmudxo'ja Behbudiyning "...***Bugun bizlarga to'rt tilga tahrir va taqrir etguvchilar kerak***", deya murojaat qilishi til o'rganish hamisha xalqimiz ma'naviyatida eng ahamiyatli jihatlardan biri ekaniga ishoradir.

Yurtimiz Buyuk ipak yo'lining markaziy nuqtalaridan biri bo'lgani, otabobolarimizning arabiyligi, forsiy tillarini turkiy til kabi mukammal egallagani til o'rganish biz uchun nafaqat bugungi kun talabi, balki zarurat ekanligini ko'rsatadi.

Biz zullisonayn adiblar bo'lgan Mavlono Lutfiy, hazrat Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Nodirabegim, Boborahim Mashrab, Jahon otin Uvaysiydek fozil va fozilalar avlodimiz. Bizning tomirlarimizda buyuk allomalar qoni oqmoqda. Ularning ma'naviy merosini davom ettirish barobarida ommalashib borayotgan xorijiy tilni o'rganishga ham, o'rgatishga ham e'tibor berishimiz lozim.

Shuni alohida qayd etish lozimki, har qanday xorijiy tilni mukammal egallash o'z tilini chuqr anglashdan boshlanadi. Chunki ona tilini yo'qotgan xalq o'zligini, milliy ruhini yo'qotadi. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ona tilimizga: "**O'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, beba ho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdi**", deya juda yuksak baho bergan edi.

Bu yerga yig'ilgan barcha olimlarimizni, muxtasar qilib aytganda til fidoyilarini bugungi anjuman bilan ISFT jamoasi nomidan qutlaymiz va yana bir bor institutimizga xush kelibsiz, deymiz.

"Tillarni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferesiymizni ochiq deb e'lon qilaman.